

## “DUNYONING ISHLARI” QISSASIDA BADIY NUTQ SHAKLLARI.

*Risqiboyeva Zulxumor Mirziyod qizi*

*Alisher Navoiy nomidagi*

*Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti Universiteti*

*tarjima nazariyasi va amaliyoti fakulteti 4-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasida qo‘llangan badiiy nutq shakllari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda muallif nutqi, qahramon nutqi, dialog, monolog, ichki monolog hamda roviy nutqning asar strukturasi va mazmunini ochib berishdagi o‘rni yoritiladi. Shuningdek, badiiy nutq shakllarining qahramon ruhiy holatini ifodalash va asarning estetik ta’sirchanligini oshirishdagi funksional ahamiyati asoslab beriladi.

**Annotation:** This article analyzes the forms of artistic speech in O‘tkir Hoshimov’s novella “Such is life”. The study examines the functions of authorial speech, character speech, dialogue, monologue, inner monologue, and narrative speech in revealing the structure and meaning of the literary work. It also highlights the role of artistic speech in expressing the psychological state of characters and enhancing the aesthetic impact of the text.

**Kalit so‘zlar:** Badiiy nutq, muallif nutqi, qahramon nutqi, dialog, monolog, ichki monolog, roviy nutqi.

**Key words:** Artistic speech, authorial speech, character speech, dialogue, monologue, inner monologue.

Inson hayoti, uning quvonch va iztiroblarini badiiy ifodalashda nutq shakllari muhim ahamiyat kasb etadi. Inson qalbining eng nozik kechinmalarini so‘z orqali ifodalash – haqiqiy ijodkorlik belgisidir.

Adabiyotshunos D. Quronov ta'kidlaganidek: "Albatta biz "badiiy asar tili" deganimiz holda, aslida gap badiiy nutq haqida borayotgani ma'lum, chunki til unsurlari ma'lum kontekstni hosil qilgach, nutq hodisasiga aylanadi".<sup>1</sup> Ushbu fikr badiiy asarda til birliklari alohida holatda emas, balki muayyan kontekstda qo'llanilgandagina badiiy nutq sifatida namoyon bo'lishini anglatadi. Shuningdek, badiiy nutqning muhim xususiyati shundaki, unda muallif nutqi va qahramon nutqi o'zaro farqlanadi va har biri o'ziga xos estetik hamda funksional vazifani bajaradi.

Shu jihatdan, O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asarida qo'llangan badiiy nutq shakllari alohida e'tiborga loyiqdir. Muallif oddiy, sodda va samimiy ifodalar orqali inson ruhiyatini chuqur ochib beradi. Asarda dialog, monolog va muallif nutqi uyg'unlashib, qahramonlarning ichki kechinmalari hamda hayotiy qarashlarini ta'sirchan tarzda yoritadi. Natijada o'quvchi voqealarni shunchaki anglab qolmaydi, balki ularning ichiga kirib boradi – qahramonlar bilan birga yashaydi. Natijada o'quvchi voqealarni shunchaki kuzatuvchisi bo'lmay, qahramonlar taqdirini qalban his etib, asardan hayotiy xulosalar chiqaradi.

Xususan, qahramonning ichki monologi orqali inson qalbida kechadigan his-tuyg'ular chuqur va ta'sirchan ifodalanadi. "Men aytaman... aytaman-u o'ylayman: onaning yosh-qarisi bo'ladimi? Mehrning yosh-qarisi bo'ladimi? Shafqatning-chi? Sadoqatning-chi?"<sup>2</sup> kabi fikrlar qahramonning ichki ruhiy iztiroblari, o'z-o'ziga murojaati va hayotiy haqiqatni anglash jarayonini aks ettiradi. Bu yerda savol-javob shaklidagi nutq usuli orqali muallif umumlashtirilgan falsafiy xulosani ilgari suradi.

Shuningdek, "Ilgarilari bir haqiqatni bilardim. Ona uchun bolaning katta-kichigi bo'lmaydi. Endi yana bir haqiqatni angladim: bola uchun ham onaning katta-kichigi

---

<sup>1</sup> Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: Fan, 2007. – 228-b.

<sup>2</sup> O'tkir Hoshimov. *Dunyoning ishlari*. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2012. — 8-bet.

bo‘lmas ekan. Ona — ona ekan. Unga boshqa sifat kerakmas”<sup>3</sup> kabi jumlar badiiy nutqda soddalik va teran ma’no uyg‘unligini ko‘rsatadi. Bu fikrlar orqali ona timsoli umumlashgan, muqaddas obraz darajasiga ko‘tariladi. Qahramon nutqidagi bunday sodda, ammo mazmunan chuqur ifodalar asarning ta’sirchanligini oshiradi.

Bugun kitobim chiqdi. Har gal yangi kitobim chiqishi bilan birinchi nusxasini onamga atar edim. Har gal bir xil so‘z yozib berardim: «Birinchi o‘qituvchim - onamga!». Shunda men kitobim chiqqani uchun o‘zimdand ko‘proq onam quvonganini bilib turardim. Bilmagan ekanman, men onamning emas, onam mening suyangan tog‘im ekan. Tog‘im to‘satdan qulab tushdi. Bugun yangi kitobim chiqdi. Birinchi nusxasini emas, bitta nusxasini emas, oltmish ming kitobning hammasini onamga bag‘ishladim. Lekin...<sup>4</sup> “Kitob” hikoyasidan olingan ushbu parchada muallif nutqini ko‘rishimiz mumkin.

- Voy onam-a! Ro‘shnolik ko‘rmagan onam-a!

Ustiga paranji yopilgan tobutni hovliga opchiqishganida ayniqsa qiyomat bo‘ldi. Oyim dodlagancha tobutga yopishdi. - Onajon! Yolg‘izini ko‘rolmay ketgan onajonim!

Erkaklar tobutni ko‘tarishganida oyim besh-olti qadam yugurdi-yu, kalishi sirg‘anib ketib chalqanchasiga yiqildi.- Oyi, oyi! - dedim uning ustiga egilib. Yig‘lab yubordim. Onamning ko‘zi olayib ketgan, chamasi meni tanimas edi.- Voy, onajon-a! - dedi ingrab. - Kun ko‘rib, kuni ro‘shnolik ko‘rmagan onam-a!<sup>5</sup> Mazkur parchada avvalo qahramon nutqi (dialog) ko‘zga tashlanadi. “Voy onam-a!”, “Onajon!”, “Oyi, oyi!” kabi murojaatlar bevosita qahramonlarning og‘zaki nutqi bo‘lib, ularning ichki iztirobi va kuchli ruhiy holatini ifodalaydi. Dialoglar qisqa, lekin juda ta’sirchan bo‘lib, fojiali vaziyatni yanada jonlantiradi. Shuningdek, parchada **muallif nutqi** ham mavjud. “Ustiga paranji yopilgan tobutni hovliga olib chiqishganida...” “oyim dodlagancha tobutga yopishdi” kabi

<sup>3</sup> O‘tkir Hoshimov. *Dunyoning ishlari*. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2012. — 8-bet.

<sup>4</sup> O‘tkir Hoshimov. *Dunyoning ishlari*. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2012. — 35-bet.

<sup>5</sup> Shu kitob. 80-bet.

jumlalar voqeani tashqi tomondan bayon qiladi. Bundan tashqari, matnda **hissiy-ekspressiv nutq** juda kuchli namoyon bo'lgan. “yig‘lab yubordim”, “dodlagancha yopishdi”, “ingrab dedi” kabi ifodalar qahramonlarning ruhiy iztirobi, qayg‘usi va fojiali holatini kuchaytiradi.

Bu odamni bolaligimdan taniyman. O‘shandan buyon uning bittayam tuki o‘zgarmagan, desam lof bolmaydi. U yog‘ini so‘rasangiz, unda tukning o‘zi yo‘q: ko‘sa. U har kuni ertalab bir vaqtda darvozamiz oldidan mahalla guzari tomonga o‘tib ketadi. Qishda kuya yegan telpak, mushtdekkina gavdasiga yarashmagan uzun kamzul, oyog‘iga kalish-maxsi kiyib yuradi. Yozda bo‘lsa dumaloq, qozonnusxa baxmal do‘ppisini bostirib oladi<sup>6</sup>. Avvalo, parchada narrativ nutq yetakchi o‘rinni egallaydi. Muallif voqealarni birinchi shaxs kuzatuv orqali bayon qiladi: “Bu odamni bolaligimdan taniyman”, “U har kuni ertalab bir vaqtda darvozamiz oldidan...” kabi jumlar hikoya jarayonining izchil va tabiiy kechishini ta‘minlaydi. Ikkinchidan, parchada **tasviriy nutq** juda faol qo‘llangan. Qahramonning tashqi ko‘rinishi va kiyim-kechaklari batafsil tasvirlanadi: “ko‘sa”, “kuya yegan telpak”, “mushtdekkina gavda”, “uzun kamzul”, “kalish-maxsi”, “dumaloq Qozonnusxa baxmal do‘ppi” kabi detallar orqali obrazning yorqin portreti yaratiladi. Bunday tasvirlar o‘quvchida vizual tasavvur hosil qiladi.

Qabriston g‘ishtin devor bilan o‘ralgan. Darvozaning narigi tomonida - go‘rkovning hujrasi. Berigi tomonida - tashqarida, uning hovlisi. Darvozaga yaqin kelishim bilan ichkaridan — hujra tomondan tilovat sadosi eshitildi. Xuddi shu payt hovli tomondan alla ovozi yangrab ketdi. Alla-yo, alla, jonim bolam-a, alla... Kim boldi bu? Go‘rkovning kelinimi? Qizimi?.. U hamon sokin tovushda davom etardi: Uxla, qo‘zim, alla-yo, shirin qizim, alla... Ertalab yomg‘ir yoqqan edi. Darvozaning temir panjaralarida suv tomchilari yaltiraydi. Ko‘lmakda quyosh jilolanadi. Muzdek tutqichdan ushlagancha turib qoldim. Bir tomonda tilovat sadosi, bir tomonda alla... Ajab, ular bir-biriga xalaqit bermas, bir-birini rad etmas, ikkalasi qo‘shilib bahor nafasiga tolgan osmonda, qabriston yolkasidagi kuchala

---

<sup>6</sup> Shu kitob. 141-bet.

chiqargan teraklar ustida parvoz qilar edi: «Rabbano-o-o, rabbno-o-o...» «Allayo, alla»... Bir xil bolib ketdim. Panjarador darvozaga suyanib uzoq turib qoldim. Onam beshigim ustida alla aytganini eslay olmayman. Esimni taniganimda beshikda yotmaydigan bo‘lgan edim. Biroq oyim ukamga alla aytganini eshitganman. Ko‘p eshitganman<sup>7</sup>. Mazkur badiiy parchada nutqning bir nechta shakllari o‘zaro uyg‘unlikda qo‘llanilgan bo‘lib, ular asarning estetik va psixologik ta’sir kuchini oshirishga xizmat qiladi. Avvalo, matnda **muallif nutqi** yetakchi o‘rinni egallaydi. Muallif voqeani tashqi kuzatuvchi sifatida bayon qiladi va qabriston manzarasi, darvoza, hujra hamda hovli tasvirini ketma-ketlikda ifodalaydi. Bu nutq shakli asarning voqelik asosini tashkil etib, o‘quvchiga voqea sodir bo‘layotgan muhitni aniq tasavvur qilish imkonini beradi. Parchada keng ko‘lamda **tavsifiy (tasviriy) nutq** qo‘llanilgan. Yomg‘irdan keyingi manzara, temir panjaralardagi suv tomchilari, ko‘lmakdagi quyosh jilosi va tabiat unsurlari batafsil tasvirlanadi. Bundan tashqari, asarda **ichki nutq (ichki monolog)** elementlari ham kuzatiladi. Qahramonning onasi va bolaligi haqidagi xotiralari uning ichki kechinmalarini ifodalaydi. Bu holat qahramon psixologiyasini ochishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, uning hissiy holatini bevosita emas, balki ichki refleksiya orqali ifodalaydi.

“Oyim farrosh edi. Shunday hovlimizningyonida bolalar oromgohi bolardi. Oyim kun chiqmasdan turib yo‘lkalarni supurardi. Biz aka-ukalar suv sepamiz. Aslida suv sepish unchalik qiyin emas. Yo‘lka chetidagi ariqchaga tushib olasiz-u tog‘oracha bilan sepib tashlayverasiz. Keyin oyim bandiga uzun tayoq bog‘langan burgan supurgi bilan supurib ketaveradi. Ertalab suv muzdek bo‘lgani uchun oyog‘ingiz sovqotib “kesilib” ketadi. Ammo gap bunda ham emas. Hammasidan yomoni - tong otmasdan turish. O‘zi yarim kechagacha “ko‘cha sanqib” rosa holdan toyamiz”.

Ushbu berilgan misolda badiiy nutqning muhim ko‘rinishlaridan biri roviy nutqini ko‘rishimiz mumkin. Roviya nutqi asarda voqealar bayonini ifodalovchi nutq shakli hisoblanadi.

---

<sup>7</sup> Shu kitob. 239-b.

Mazkur tadqiqot natijalariga ko‘ra, badiiy nutq shakllari adabiy asarning g‘oyaviy-badiiy mazmunini ochishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Badiiy nutqning turli ko‘rinishlari – muallif nutqi, qahramon nutqi, dialog, monolog, ichki monolog hamda roviy nutqi – asarda voqelikni jonlantirish, badiiy tasvirni chuqurlashtirish va qahramonlarning ruhiy dunyosini ochib berishning asosiy estetik vositasi sifatida xizmat qiladi. Shu jihatdan, O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasi badiiy nutq imkoniyatlaridan yuqori darajada foydalanilgan, psixologik va emotsional jihatdan boy asarlardan biri sifatida e’tirof etiladi.

Asarda muallif nutqi sodda, samimiy va hayotiy ohangda berilgan bo‘lib, u voqealarni tabiiy tarzda bayon etish bilan birga, o‘quvchini asar olamiga chuqur olib kiradi. Muallifning ifoda uslubi ortiqcha murakkablikdan holi bo‘lib, aynan shu soddalik orqali badiiy ta’sir kuchi yanada oshadi. Qahramon nutqi esa asarda inson xarakterini ochib beruvchi asosiy vositalardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Qahramonlar nutqi orqali ularning ichki dunyosi, hayotiy qarashlari, ruhiy kechinmalari va emotsional holatlari yorqin ifodalanadi.

Umuman olganda, “Dunyoning ishlari” qissasida badiiy nutq shakllarining mahorat bilan qo‘llanilishi asarning estetik qiymatini sezilarli darajada oshiradi. Asar nafaqat badiiy jihatdan mukammal, balki insoniy qadriyatlarni – ona mehri, farzandlik burchi, mehr-oqibat, sabr va fidoyilik kabi umuminsoniy tushunchalarni chuqur anglashga xizmat qiluvchi muhim adabiy manba sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois ushbu qissa o‘zbek nasrida badiiy nutq imkoniyatlarini namoyish etuvchi yetuk asarlardan biri hisoblanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘tkir Hoshimov. *Dunyoning ishlari*. – Toshkent: Sharq nashriyoti, 2018.
2. Dilmurod Quronov. *Adabiyotshunoslikka kirish*. – Toshkent: Akademnashr, 2019.
3. Karimov N. *XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi*. – Toshkent: O‘qituvchi, 1999.
4. Karimov N. “O‘zbek nasrida badiiy nutq shakllarining rivoji”. *O‘zbek tili va adabiyoti jurnali*, 2021, №3.

5. Yo‘ldoshev Q. “Badiiy matnda psixologizm va nutq shakllari tahlili”. *Filologiya masalalari*, 2022, №2.
6. Yo‘ldoshev Q. *Badiiy tahlil asoslari*. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.
7. Sultonov H. *Adabiyot nazariyasi asoslari*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015.

***Internet manbalar:***

1. <https://ziyonet.uz> – O‘zbekiston ta’lim portali, adabiyotshunoslik bo‘yicha maqolalar.
2. <https://ziyouz.uz> – O‘zbek adabiyoti va adabiyotshunoslikka oid elektron kutubxona va maqolalar bazasi.